

**XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VA AFG'ONISTON EMIGRATSİYASI VA
REMIGRATSİYASI****Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li**

Osyo xalqaro universiteti Tarix va filologiya kafedrasи katta o'qituvchisi t.f.f.d. (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14720532>

Annotatsiya. Ushbu maqola XX asr boshlaridagi Buxoro amirligi ag'darilgan so'ng amirlik fuqarolarining qo'shni Afg'onistonga migratsiyasi masalalari, emigratsiya va remigratsiya jarayonlarini tizimli ochib berilib, ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Afg'oniston, Buxoro, emigratsiya, remigratsiya, muxojirlik, chegara, jahon urushi, beklik, qo'shni davlat, siyosat, qochoq.

**EMIGRATION AND REMIGRATION FROM BUKHARA AND AFGHANISTAN AT
THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY**

Abstract. This article systematically reveals and scientifically analyzes the issues of migration of citizens of the emirate to neighboring Afghanistan after the overthrow of the Bukhara Emirate at the beginning of the 20th century, the processes of emigration and remigration.

Keywords: Afghanistan, Bukhara, emigration, remigration, emigration, border, world war, principality, neighboring state, politics, refugee.

**ЭМИГРАЦИЯ И РЕМИГРАЦИЯ БУХАРЫ И АФГАНИСТАНА В НАЧАЛЕ ХХ
ВЕКА**

Аннотация. После свержения Бухарского эмирата в начале XX века систематически раскрываются и подвергаются научному анализу вопросы миграции граждан эмирата в соседний Афганистан, процессы эмиграции и ремиграции.

Ключевые слова: Афганистан, Бухара, эмиграция, ремиграция, иммиграция, граница, мировая война, безопасность, соседняя страна, политика, беженец.

Birinchi jahon urushida Rossiya tomonidan asirga olingan ko'plab nemis, avstriys, chex, rumin, Slovak, vengirlar Turkistonda istiqomat qilar, ularning harbiy unvoni va har ko'nikmasi yuqori bo'lib, ulardan afg'onlar Buxoro-afg'on, afg'on-rus chegarasi orqali Afg'onistonga qochishiga yordamlashganlar[1]. Bundan ko'zlangan maqsad Afg'oniston armiyasini zamonaviy anjomlar bilan ta'minlash bo'lgan.

Amirlik fuqarolarining muxojirlikka o'tish sabablari ham turlicha bo'lib, Masalan: 1913-yilning kuzida Buxoro amirligining Qobadiyon bekligidan ko'plab buxorolik oilalar Afg'onistonga ko'chib o'tgan. Muxojirlikka o'tishning asosiy sababi sifatida Qobadiyon bekligining begi bo'lган Davronbek To'qsabo tomonidan xalqqa solingan va to'lash imkonini bo'lмаган кatta miqtordagi sotiq edi"[2]— degan ma'lumotlar arxiv hujjatlarida keltiriladi.

1917-yilga qadar bo‘lgan davrda o‘zbek muxojirligining to‘lqinlari Afg‘oniston va boshqa ko‘plab Sharq mamlakatlariga tarqalganligini ko‘rsak. Ulardan Shimoliy Afg‘onistondagi o‘zbeklar soni salmoqli bo‘lib hisoblanadi. Bunda bir qancha omillar sabab bo‘lib, bular til, urfodat, diniy mahzabdoshlik, yagona millatga xos komponetlar, yangi joy va sharoitlarga adaptatsiyalashuvning tez kechishi, madaniy ma’rifiy belgilardagi umumiylilik kabilarni bunga sabab bo‘lgan.[3]

Afg‘oniston davlati tutgan siyosiy yo‘l shundan iborat ediki, Angliyaga qaramlik va mustaqillik uchun kurash olib borish jarayonida sovet davlati bilan ham aloqalarni yomonlashtirishni istamagan. Shu sababli bo‘lsa kerakki 1918-yilda Buxoro amirligida sodir bo‘lgan “Kolesov voqeasi”dan so‘ng Kogon (Yangi Buxoro)dan jami 8 ming o‘zga din vakillari va Yevropa millatlari vakillari qochadi. Ularning aksariyat qismi Afg‘oniston hududiga qochadi. Buxoro amirining ularni tutib berish borasidagi talablarini Afg‘oniston amiri bajarmay, Buxoro amirligi va sovet davlati o‘rtasidagi munosabatlar izga tushib ketmaguncha ularni o‘z himoyasiga oladi[4].

Afg‘onistonga ommaviy muxojirlik 1920-yillarda boshlanib “Yosh afg‘oniylar” hukumatini bu jarayon tashvishga solgan. Buxoro-afg‘on chegarasida to‘plangan muxojirlarni afg‘on harbiy otliq qismlari piyoda va och-yalang‘och 1200 kilometr masofaga joylagan, tabiiy noqulay bo‘lgan Chixonsur va Naxri Siroj hududlariga[5] surgun qilib haydab ketishgan. Bu jarayonda ko‘plab muxojirlarning o‘limi kuzatilib, ayniqsa homilador ayollar yo‘llarda nobud bo‘lishgan[6].

Aynan 1918-1924-yillarda Turkistonda milliy ozodlik uchun kurashlarda ishtirot etib, yengilgan kuchlarning tarafdarlaridan 400 ming kishi xorijdan panoh topishgan bo‘lsa, [7] 1917-1934-yillarda xorijga o‘tib ketganlarning soni 900 ming kishini tashkil qilgan[8]. Bularning aksariyat qismi Afg‘oniston orqali chet davlatlarga chiqib ketganligi tarixiy ma’lumotlardan ayon bo‘ladi.

XIX asrning 80 yillariga kelib Rossiyaning mustamlakachilik siyosati tufayli O‘rta Osiyo va Afg‘oniston hududida rus hukmronligini o‘rnatish maqsadida Rossiya-Angliya o‘rtasidagi kurash kuchayishi natijasida O‘rta Osiyoning Amudaryo orqali Afg‘oniston bo‘ylab o‘tgan chegar hududlariga rus va ingliz harbiy zabitlari, harbiy suratkashlar va sayohatchilar tez-tez kela boshladilar[9].

Buxoro amirligining Afg‘onistonga muxojirlikka o‘tish uchun fuqarolar asosan chegarasi uzoq masofalarga cho‘zilgan, bo‘sh qo‘riqlanadigan, to‘qay va qamishzorlardan iborat bo‘lgan, kechuvga qulay, sayoz joylariga ega bo‘lgan Amudaryo orqali amalga oshirilgan.

Buxorolik adib, S.Ayning o‘zing “Yetim” qissasida muxojirlikka o‘tish jarayonlarni shunday tasvirlagan: “Amir ko‘zdan g‘oyib bo‘lgach, boylar o‘g‘illari va o‘zlariga yaqin kishilarni

cho‘lga yuborib, uchragan poda va qo‘ylarni haydab, daryodan olib o‘tishni buyurdilar, o‘zlar esa qimmatbaho matolari, pul, xotin-xalaj farzandlarini, xizmatkorlarini olib kelish uchun qishloqlarga jo‘nadilar[10]” – deb yozadi. Asardan ayon bo‘ladiki asar bosh qahramoni Shodi Murod o‘g‘li o‘z onasini izlab, (zo‘rlik bilan Eshonqulboy tomonidan Afg‘onistonga olib ketilgan) Afg‘onistonga o‘tganligi, yo‘lda ko‘plab azob-uqubatlar chekkanligi, Afg‘onistonning ovloq qishloqlaridan birida onasi Sorani topganligi, ammo boyning haydab solishi va onasining nochorligi tufayli yana ming azob bilan vatanga qaytganligi asarda yoritilgan.

Xulosa qilib aytganda Buxoro amirligi ag‘darilgandan so‘ng amir Said Olimxon qo‘shti Afg‘oniston hududiga o‘tganida uning ortidan juda ko‘plab amirlik fuqarolari daryoni kehib, qo‘shti davlat hududiga o‘tganlar. Lekin, Afg‘oniston hukumati Buxoro fuqarolarini yana qayta orqaga o‘z yurtlariga qaytishga majbur qilganida juda ko‘plab fuqarolarning o‘z yurtlariga qaytishga majbur bo‘lishganligi, ular chegaradan o‘tishda juda ko‘plab qiyinchiliklarga duchor bo‘lishganligi tadqiq qilindi. Mana shunday jarayonlar ta’siri natijasida XX asr boshlarida Buxoro va Afg‘onistonda emigratsiya va remigratsiya jarayonlari kuchayganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Mirzoyev Sh.M. Birinchi jahon urushi yillarida Buxoro va Afg‘oniston chegaralaridagi ahvolga doir.//”Buxoro tarixi masalalari (Eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari Buxoro-2017. 15 dekabr. –B.183.
2. ЎМА, И-3 фонд, 2-рўйхат, 273 йиғма жилд, 1-варақ.
3. Ҳайитов Ш. Ватан меҳри. Бухоро-2010. Б.54.(88 бет)
4. Пылёв А.И. Политическое положение Бухарского эмирата и Хивинского ханства в 1917-1920 гг. выбор путей развития. СПб.: Петербургское востоковедение, 2005. – С. 125.
5. Муҳожир ўзбекларни кўчириш 1930 йиллардан кейин афғон ҳукуматининг буйруғи билан Ҳелманд маркази Лашқаргоҳ вилоятига сургун қилинган. Ҳелмандда иссиқлик даражаси жуда юқори бўлиб 50-70 даражагача бўлиб, муттасил гармсеп олов пуркаб турган. Яна қаранг. Ҳайитов Ш.А., Мирзоев Ш.М. Афғонитон тарих кўзгусида. (монография). Бухоро., “Дурдона”, 2018 йил, -Б.60.
6. Мубаширхон Салмон Косоний. Хотиралар.//Дунё:1993 йил.№1. Б.30.
7. Ражабов Қ.Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш.Т., “Манавият”, 2002.-Б.140.
8. Said Mansur Olimiy. Buxoro-Turkiston beshigi.-Buxoro-2004.-Б.45.

9. Турсунов А.С. Тарихий манбаларда Эски Термиз ҳақидаги маълумотларнинг ёритилиши (XIX аср – XX аср бошлари). XIX –XX аср бошларида Марказий Осиёда интеллестуал мерос: анъаналар ва инновациялар илмий тўплами Тошкент., 2018 йил, 75 бет.(75-78)
10. Садриддин Айний. Етим. (Ҳомиджон Ҳамидов таржимаси)//Судхўрнинг ўлими: қиссалар. Т., “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти-1978 йил, Б.336.
11. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 82-85.
12. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
13. Asror o'g'li A. A. et al. BUXORO VOHASIDAGI VARDONZE QO ‘RG ‘ONINING ANTIK VA O ‘RTA ASRLAR DAVRI TARIXI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 45. – №. 5. – С. 84-87.
14. Asror o'g'li A. A., Farruxbek N. FARG ‘ONA VODIYSIDAGI ILK SHAHARSOZLIK MADANIYAT (CHUST MISOLIDA) //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 45. – №. 5. – С. 88-91.
15. Botirjon O'g'li N. S., Asror o'g'li A. A. UMARXON XUKMRONLIGI DAVRIDA QO’QON XONLIGINING HARBIY SALOHIYATI //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 374-377.
16. Zoir o'g'li R. Z., Asror o'g'li A. A. QADIMGI XORAZM: O ‘ZBEK DAVLATCHILIGINING ILK BOSQICHIDA //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 378-382.
17. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.